

“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA SO‘Z VA GAP KENGAYTIRUVCHILARINING MUVOFIQLASHUVI VA FARQLANISHI”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18226771>

Alimova Manzura Xayrullayevna

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o`qituvchisi*

Hozirgi davrgacha o‘zbek adabiy tilining fonetik, leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, hali o‘zbek tilshunosligi oldida hal qilinmagan muammolar oz emasligini ta’kidlash kerak. Ana shunday muammolar qatoriga tildagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan sintaktik qonuniyatlar, ularning darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ifodalanishi, an’anaviy va tizimli yondashuv masalalarini kiritish mumkin.

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat butunlik bo‘lishiga qaramasdan, yaqin yillargacha sintaktik tadqiqotlarda, asosan, gapning shakliy tomoniga e’tibor berilgan. Faqat ayrim o‘rinlardagina (masalan, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini belgilashda ikkinchi darajali bo‘laklarning ichki tasnifida) mazmun tomoniga murojaat qilindi. Hozirgi kunda gap mazmunini o‘rganuvchi mazmuniy sintaksis deyarli hamma tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsa ham, nazariy fikrlarni shakllantirishda, terminlar qo‘llanishi masalasida bir xillik yo‘q.

1) so‘zlar o‘zaro sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik – so‘z birikmasi vujudga keladi. So‘zlarning o‘zaro birikib, tushuncha ifodalovchi birlik hosil qilish qonuniyatini o‘rganish – so‘z birikmasi sintaksisining vazifasi;

2) so‘z fikr ifodalashga ixtisoslashgan nutqiy birlik – gapni shakllantiradi. Gap hosil qilish qonuniyati bilan gap sintaksisi mashg‘ul bo‘ladi.

3) sintaktik birlik – gap va so‘z birikmasi – so‘zning qo‘shilishidan hosil bo‘lishi, bu qo‘shilishning esa turli vosita (qo‘shimcha, yordamchi so‘z) va usul (masalan, tobe aloqaning turi) orqali yuzaga kelishi sintaksisning boshqa sathlar bilan zich aloqada ekanligini ko‘rsatadi.

Sintaksis atamasi, grammatika atamasining o‘zi kabi ikki ma’noli:

1) tilning sintaktik qurilishi;

2) grammatikaning tarkibiy qismi.

Atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo‘llab, birinchi ma’no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz.

Asosiy sintaktik birliklar. Soʻz birikmasi va gap – sintaksisning asosiy birliklari. Shunga koʻra, sintaksis ikkiga boʻlinadi:

- 1) soʻz birikmasi sintaksisi;
- 2) gap sintaksisi;

Soʻzning nutqda oʻzaro aloqaga kirishuvidan soʻz qoʻshilmasi vujudga keladi. Soʻz qoʻshilmasini ikki guruhga birlashtirish mumkin:

- 1) gap (Osmon tip-tiniq);
- 2) soʻz birikmasi (tip-tiniq osmon).

Til jamiyatda aloqa qilish, axborot uzatish vositasi hisoblanadi. Axborot uzatish esa gap orqali amalga oshiriladi. Demak, gap fikr ifodalaydi. Soʻz birikmasi fikr emas, balki soʻz kabi tushuncha ifodalaydi. (Biroq soʻz birikmasi ifodalagan tushuncha soʻz ifodalagan tushunchadan farqlanadi.) Koʻrinadiki, sintaksisning bosh birligi gap, soʻz birikmasi soʻz kabi bevosita yoki bilvosita uning tashkil etuvchisidir.

Sintaktik birlik – gap va soʻz birikmasi – soʻzning qoʻshilishidan hosil boʻlishi, bu qoʻshilishning esa turli vosita (qoʻshimcha, yordamchi soʻz) va usul (masalan, tobe aloqaning turi) orqali yuzaga kelishi sintaksisning boshqa sathlar bilan zich aloqada ekanligini koʻrsatadi.

Demak, nutqda:

1) soʻzlar oʻzaro sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik – soʻz birikmasi vujudga keladi. Soʻzlarning oʻzaro birikib, tushuncha ifodalovchi birlik hosil qilish qonuniyatini oʻrganish – soʻz birikmasi sintaksisining vazifasi;

2) soʻz fikr ifodalashga ixtisoslashgan nutqiy birlik – gapni shakllantiradi. Gap hosil qilish qonuniyati bilan gap sintaksisi mashgʻul boʻladi.

Mustaqil soʻzlarning nutq jarayonidagi erkin bogʻlanishi sintaktik aloqa deyiladi: Suvlar tiniq, toza havo. Sintaktik birlik bir necha aʼzoli boʻladi. Faqat gap bir aʼzoli boʻlishi mumkin. Nutqda soʻzlarning bir-biri bilan bogʻlanishi har bir tilning birikish imkoniyati asosida sodir boʻladi.

Soʻzning sintaktik munosabatga kirishuvi natijasida hosil boʻlgan sintaktik qurilma soʻz qoʻshilmasi deyiladi. Bu soʻzning bir-biriga ergashishi (aʼlochi oʻquvchi) yoki tenglashishi (olma va anor) shakllarida boʻlishi mumkin. Aʼlochi oʻquvchi birikmasida bir soʻz maʼnoviy qobiliyatini namoyon qilish uchun boshqasiga ehtiyoj sezadi. Aniqrogʻi, oʻquvchi uzvi izohlanishga muhtoj. SHu boisdan aʼlochi soʻzi unga ergashib, izohlab keladi. Bu tobelanish aloqasi. Tobelanish aloqasi natijasida soʻz birikmasi va gap hosil boʻladi: tiniq suv, Halim oʻqidi. Oʻzbek tilida keyin kelib, maʼnosi izohlanayotgan soʻz hokim (bosh) soʻz, hokim soʻzga ergashish yoʻli bilan bogʻlanib, uning maʼnosini izohlaydigan soʻz

tobe (ergash soʻz) deyiladi. Tiniq suv, Halim oʻqidi birikuvlarida tiniq va Halim soʻzlari tobe, suv va oʻqidi soʻzlari – hokim aʻzo.

Nutqda soʻzlarning barchasi ham tobe aloqada bogʻlanavermaydi. Soʻzlar olma va anor, nok va anjir, oʻqidi va yozdi shaklida biri ikkinchisiga boʻysunmay, teng holda ham bogʻlanishi mumkin. Bu soʻz qoʻshilmalari aʻzolari teng huquqli boʻlib, biri ikkinchisining maʼnosini izohlamaydi.

Demak, soʻzlar orasidagi aloqa ikki xil: tenglashish va tobelanish. Ular esa uch xil hosilani beradi: soʻz birikmasi, soʻz tizmasi va gap. Tenglashish aloqasi asosida soʻz tizmasi hosil boʻlsa, tobelanish aloqasi asosida soʻz birikmasi va gap shakllanadi.

Soʻz tizmasi (olma va anor) teng huquqli aʻzolaridan tashkil topadi. Ular orasida tobelik boʻlmaydi. SHunga muvofiq, soʻzlar orasida bir-birini izohlash, toʻldirish hodisasi ham yoʻq. Soʻz tizmasi tashkil etuvchilarining oʻrnini almashtirish ham mumkin: anor va olma. Bu ularning sintaktik mavqei va maʼnosiga putur yetkazmaydi. Soʻz tizmasidagi aʻzolar birgalikda boshqa soʻzga tobelanib, uni aniqlashi (oq va sariq gullar) yoki boshqa soʻz tomonidan izohlanib, birgalikda hokim aʻzo boʻlib kelishi mumkin (shirin olma va anor). Shuningdek, soʻz tizmasidagi har bir aʻzo oʻziga xos tobe uzvlarga ham ega boʻlishi mumkin (oʻqiyotgan bola va yozayotgan qiz).

Soʻz tizmasi aʻzolari teng bogʻlovchilar yordamida yoki bogʻlovchi vositasiz, faqat ohang yordamida bogʻlanishi mumkin: bola, qiz kabi. Soʻz tizmasi aʻzolari, asosan, bir soʻz turkumiga mansub leksemalar voqelanishi boʻladi: olma (ot) va anor (ot). Baʼzan ular turli turkumdan ham boʻladi: Halim (ot) va men (olmosh).

Soʻz birikmasi birikuvchi soʻzlarning hokim-tobelik munosabati asosida hosil boʻladi. Bunda izohlanuvchi aʻzo kengayuvchi, izohlovchi aʻzo kengaytiruvchi aʻzo deb ham yuritiladi: kitobni oʻqimoq (kitobni - izohlovchi, kengaytiruvchi, oʻqimoq - izohlanuvchi, kengayuvchi).

Tobelanish aloqasida hokim aʻzo hokimlik mavqei va vositasiga, tobe aʻzo tobelik mavqei va uni taʼminlovchi vositaga ega boʻladi. kitobni oʻqimoq birikmasida kitobni aʻzosi oldin kelib, tushum kelishigi koʻrsatkichi bilan shakllangan boʻlsa, oʻqimoq aʻzosi hokimlik mavqei va shakliga ega.

Aʻzolarining hokim-tobeligini bildiradigan shakliy koʻrsatkich har doim ham boʻlavermaydi. Morfologik koʻrsatkich boʻlmaganda ham tobelik va hokimlik belgisi birikuvchi soʻzlarning lugʻaviy-grammatik tabiatidan, sintaktik oʻrnidan hamda tartib va ohangdan bilinib turadi. Masalan: tiniq suv (tobe+hokim), suv tiniq (tobe+hokim).

Nutqiy birikuvda hokim-tobelik belgisini aniqlashda ohangga asoslanishning ahamiyati katta. Masalan, soʻz tizmasida sanash ohangi mavjud boʻlsa (qalam,

daftar), soʻz birikmasida koʻtariluvchi (kitobni oʻqimoq) va gapda pasayuvchi ohang (suvlar tiniq) amal qiladi. Biroq hokim-tobelikni aniqlashda morfologik koʻrsatkichga tayanish har doim ham toʻgʻri boʻlavermaganligi kabi (chunki morfologik koʻrsatkichsiz ham soʻz birikuvi hosil boʻlaveradi - qizil qalam), ohang va soʻz tartibiga tayanish ham mutlaq asos emas. Chunki kitobni oʻqidi nutqiy soʻz birikmasi pasayuvchi ohang bilan aytilsa, oʻqidim kitobni hosilasida hokim soʻz oldin tobe soʻz keyin kelsa-da, u soʻz birikmasi sanalaveradi. Umuman, tobelikning koʻrsatkichlari boʻlmaganda, tartib – hokim-tobelikning asosiy belgisi, bunday koʻrsatkich boʻlganda esa u oʻz kuchini yoʻqotadi.

Tenglashish uyushiq boʻlaklar va ayrim qoʻshma gap aʼzolari orasida amal qilsa, bulardan boshqa bogʻlanish – tobelanish aloqasi.

Gapning asosini ham tobelanish tashkil qiladi. Kesim gapning markaziy, uyushtiruvchi boʻlagi boʻlib, u barcha gap boʻlagini oʻziga bevosita yoki bilvosita tobelaydi.

Erkin birikmada soʻzlarning bogʻlanishi va unda sintaktik aloqa vositalari turlicha: aʼlochi oʻquvchi, oʻqituvchini tabriklamoq, telefon orqali gaplashmoq, kitobning varagʻi va h. kabi.

Soʻzlarning turli vosita yordamida bogʻlanishi ularning qaysi lugʻaviy-grammatik tip (soʻz turkumi) ga kirishiga, lugʻaviy-grammatik xususiyatiga bogʻliq. Zero ayrim lugʻaviy-grammatik tip, asosan, tobe aʼzo vazifasida kelish uchun ixtisoslashgan (masalan, son, ravish, sifat): besh oʻquvchi, tez gapirish, aʼlochi bola kabi. Shuning uchun ular soʻz birikmasida tobe aʼzo mavqeida kelish uchun maʼlum bir grammatik koʻrsatkichni talab qilmaydi. Ayrim soʻz turkumi (masalan, ot, feʼl), asosan, hokim mavqe egallashga xoslangan: issiq non, kitobni keltirmoq. Shu boisdan ular tobe aʼzo sifatida nutqda ishtirok etishi uchun asosan oʻziga xos grammatik shakl kasb etadi: paxtani termiq, terilgan paxta.

Sintaktik aloqani ifodalovchi vosita sintaktik shakl hosil qiluvchi qoʻshimcha, yordamchi soʻz, soʻz tartibi va ohangdir.

Har qanday grammatik koʻrsatkich (morfema) ifoda jihati bilan mazmun jihatining bir butunligidan iborat boʻlishi – aksioma. Ifoda jihati yoʻq ekan, mazmun jihati (maʼno) haqida gapirish, sunʼiy ravishda oʻylab topilgan bunday maʼnoni "soʻz-gap"ning lugʻaviy maʼnosiga kiritish - mutlaqo notoʻgʻri, uydirma fikr.

Yuqorida sanalgan olti hodisadan faqat Ma misolida tushlash kategoriyasining koʻrsatkichi qatnashadi: Ma + □IV – Ma + ng. Shu asosda bu birlikni gapshakl deyish va uning qolipini quyidagicha tuzib koʻrsatish mumkin:

Ma + buyruq mayli II shaxs tuslovchisi

l e k s e m a s h a k l

gaplik ohang i
gapshakl
Ma. Mang.

Qolgan besh tur misollarga shakl yasash va shakl o'zgartirish mansub emas; demak, bularga kesimni (gapni) shakllantiradigan grammatik kategoriyalarning ko'rsatkichlari qo'shilmaydi, ularda bu grammatik kategoriyalarning ma'nolari ifodalanmaydi.

Bu besh tur misoldan o'zicha mustaqil ishlatiladigani, demak, gapshaklga eng yaqini - xitob undovlari bilan ifodalangan birliklar. Grammatik shakllarga kirmaydigan so'z-gap deb shu hodisani aytish mumkin: Chuh! Beh-beh! kabi.

Muomala odatini bildiradigan Salom. Marhamat. kabi leksemashakllar leksik mundarijaga ega bo'lib, o'zicha mustaqil ishlatiladi, demak, bularni ham so'z-gap deyish mumkin.

O'zbek tilshunosligi so'nggi yillar davomida ma'lum darajada o'sib, taraqqiyot ta'sirida paydo bo'layotgan masalalarni hal etishga diqqatini qaratdi. Jahon tilshunosligidagi singari o'zbek tilshunosligida ham endilikda e'tibor til strukturasi muammosidan tilning inson faoliyatining turli sohalaridagi vazifasiga ko'cha boshladi. Tilning sistem xarakteri, til birliklarining paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari, o'zaro munosabatini atroflicha tahlil etish kun tartibidan barqaror joy oldi.

Shu bilan birga, mustaqillik davrida tilning sintaksis bo'limi sathida ham bir qator e'tiborli o'zgarishlar o'z ifodasini topdi. Bu o'rinda professor H.Ne'matov va ustozning qator shogirdlari (R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, M.Qurbonova, S.Muhammadjonova, B.Yorov, L.Raupova va boshqalar) ikkinchi va uchinchi davrda yashab, ijod etgan olimlar Ayyub G'ulomov, Faxri Kamolov, G'ani Abdurahmonovlar kesimning gap tarkibida muhim mavqeda turishi haqida fikrlarini tahlil qildilar. Olimlar o'zlari yashagan davr sharoiti taqozosi bilan kesimning hukmronlik vazifasini olg'a surishgan-u, ammo rivojlantira olmaganlar. O'sha davrlarda, professor N.Mahmudov aytganidek, "o'zbek tili hodisalarini rus tili qoliplariga solib tushuntirish" majburiy edi. Xalqimiz erishgan Mustaqillik fanimizni "o'zbek tili hodisalarini rus tili qoliplariga solib tushuntirish" tutqunligidan ham ozod qildi, unga mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib, milliy ong, milliy tafakkur va mafkuraning muhim suyanchiqlaridan, yosh avlodga ijodiy tafakkur ko'nikmalarini singdirishning asosiy vositalaridan biriga aylanishga imkon berdi. Shuning uchun ham ona tili - o'zbek tilimiz mohiyatidan kelib chiqib, olimlar sodda gap asosiga kesim birligini oldilar. Shu asosda sodda gap, uning tipik turlari tadqiq etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.-T.: O'zbekiston, 1996. 80-bet.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998. 3-bet.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz, - T.: O'zbekiston, 2000.
4. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1969 y.
5. Abdurahmonov G'. Tarixiy tintaksis. Toshkent. Fan. 1974 y.
6. Abdurahmonov G'. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1779 y.
7. Abdurahmonov X., Rafikov A., Shodmonqulova D. O'zbek tilning amaliy grammatikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1992 y.